

AMALIY JARAYONLARNI TAHLIL QILISHDA KONTENT TAHLIL USULINI QO'LLANISHI

Abdumalikova Sevara Orifjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248187>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bevosita amaliy siyosiy hodisalarni tahlil qilishning ahamiyati, siyosiy tahlil usullaridan biri bo'lgan kontent tahlil usulini xalqaro siyosiy jarayonlarda qo'llanilishi, siyosiy tahlilni ilmiy tadqiqotning alohida turiga aylantiruvchi xususiyatlari haqida, shuningdek, davlatning siyosiy imidji - davlatning o'z fuqarolari va xalqaro maydondagi qiyofasi va uning namoyon bo'lishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: siyosiy tahlil, samaradorlik, tugallanmagan vaziyatlar, subyektivlik, ko'p o'lchovlilik, mikro darajadagi tahlil, kontent tahlil, xavfsizlik, davlatning siyosiy imidji.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОНТЕНТ-АНАЛИЗА ПРИ АНАЛИЗЕ ОПЕРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение анализа непосредственных практических политических явлений, применение метода контент-анализа, одного из методов политического анализа, в международных политических процессах, особенности, выделяющие политический анализ в отдельный вид научного исследования, а также политический имидж государства - образ государства среди его граждан и на международной арене, и его проявления.

Ключевые слова: политический анализ, эффективность, незавершенные дела, субъективность, многомерность, микроуровневый анализ, контент-анализ, безопасность, политический имидж государства.

THE USE OF CONTENT ANALYSIS IN ANALYZING OPERATIONAL PROCESSES

Abstract. This article discusses the importance of analyzing direct practical political phenomena, the application of the content analysis method, one of the methods of political analysis, in international political processes, the features that make political analysis a separate type of scientific research, as well as the political image of the state - the image of the state among its citizens and in the international arena, and its manifestation.

Keywords: political analysis, effectiveness, unfinished business, subjectivity, multidimensionality, micro-level analysis, content analysis, security, political image of the state.

To'xtovsiz rivojlanayotgan bugungi dunyoda siyosiy jarayonlar ko'lamini keng. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar, hamkorlik dasturlari va davom etayotgan ziddiyatlar siyosiy soha vakillari uchun katta qiziqish uyg'otadi. Xalqaro munosabatlar subyekti sifatida jahon siyosatida sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan befarqlik mamlakat siyosiy imijini davlatlararo ko'lamda pasaytiradi.

Davlat ichidagi vaziyatlarni o'rganish esa ichki barqaror rivojlanish va omma orasida tinchlikni ta'minlovchi muhim omildir. Ichki va tashqi siyosatda faqatgina statistik ma'lumotlarni o'rganishning o'zi, albatta, tinchlikni ta'minlamaydi, bu chuqur va har tomonlama tahlilni talab qiladi.

Tatbiqiy bilimlarda qo'llaniladigan siyosiy sohalarni tatbiq etishning usul va metodlari real siyosiy jarayonlarni, turli subyektlarning harakatini va ularning o'zaro munosabatlarini

o'rganishga qaratilgan siyosiy fanning maxsus tarmog'ini shakllantiradi.¹ Aniq siyosiy vaziyat siyosiy tahlil predmetidir. Siyosiy tahlil orqali muammoning kelib chiqish sababini ochib beriladi, uning asosiy belgilarini ko'rsatiladi, mavjud ma'lumotlarni sharhlanadi, muammoning ko'lamini aniqlanib, rivojlanish sur'atini va istiqbolini ochib beriladi.

Siyosiy tahlilni ilmiy tadqiqotning alohida turiga aylantiruvchi oltita xususiyat mavjud:²

□ Samaradorlik- qat'iy vaqt cheklovlari

□ "Foydali bilim"- Amaliy tabiat: nafaqat xulosalar, balki tavsiyalar ham muhimdir.

Siyosiy tahlilchi uchun yakuniy bosqich foydali bilimlarni, ya'ni aniq aktyor uchun batafsil tavsiyalarni o'zlashtirishdir.

□ "Tugallanmagan vaziyatlar" - Siyosatshunoslar odatda "tugallangan vaziyatlar", "haqiqiy" natijasi ma'lum bo'lgan siyosiy voqealar bilan ishlaydi, siyosiy tahlilchilar bo'lsa, natijasi aniq bo'lmagan butun bir jarayon bilan, masalan, saylov jarayonini olsak, saylov o'tkazilishidan, hukumat o'rnatilib to ular siyosat yuritishni boshlaguncha bo'lgan vaziyatlar bilan shug'ullanadilar.

□ Subyektlilik - vaziyat yoki muammoda muayyan ishtirokchining manfaatlari va maqsadlari ko'zlanadi.

□ Ko'p o'lchovlilik- Siyosiy tahlil ko'p o'lchovli tahlilga tayanadi.

□ Mikro darajadagi tahlil - Siyosiy tahlil mikrotahlil, ya'ni mikrodarajadagi tahlildir.

Mohiyatan, siyosiy tahlil dunyoga ma'lum bir qarash, ma'lum bir nuqtai nazardir. "Biz ko'z bilan emas, balki miyamiz bilan ko'ramiz." Bu mavhum tarzda o'rganib bo'lmaydigan narsa.

O'rganish faqat amaliyot orqali amalga oshiriladi. Bu maxsus bilim turi, ko'nikma va amaliy qobiliyatlar bilan bevosita bog'liqdir.³

Xalqaro va ichki siyosatda siyosiy tahlilning bir qancha turi orqali tadqiqotlar o'tkazish mumkin. Shu tahlil usullaridan biri kontent tahlil usulidir. Kontent tahlil usulida esa ma'lumotlar to'planib, matn mazmunining ma'lum birliklarini aniqlash, olingan ma'lumotlarning miqdorini aniqlash va siyosiy ishtirokchilarning harakatlarini baholash va bashorat qilish uchun natijalarni talqin qilishdir.

Hozirgi sharoitda, xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish masalalari uzoq o'ylangan va ko'p o'lchovli strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Nafaqat umumiy tinchlik, balki jamiyat hayotidagi barqarorlik, taraqqiyot ham oqilona yuritilgan siyosat orqasidan keladi.

To'g'ri tanlangan siyosat esa tahlil va tadqiqotlar natijasidir. 2025-yilning sentabrida "Birgalikda yaxshiroq: tinchlik, taraqqiyot va inson huquqlari uchun 80 yil va undan ko'proq" shiori ostida o'tkazilgan 80-yubiley sessiyada Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlat rahbarlari o'z nutqlari bilan qatnashdi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqi bilan ishtirok etdi. Mamlakatimiz rahbari o'z nutqida ijtimoiy so'zini 3 marta, iqtisodiy 1 marta, ta'lim so'zini 6 marta ishlatgan, xalqaro so'zi 6 marta, sherikchilik 3 marta, tinchlik so'zini 4 marta, yangi so'zini 4 marta ishlatdi. Bundan kelib chiqadiki, nutqda iqtisodiy sohadan ko'ra ijtimoiy sohaga ko'proq urg'u berilgan. Mamlakatimizdagi yangi siyosat ta'kidi va ta'lim xususida, shuningdek, xalqaro hamkorlik va sherikchilik haqida so'z ketgan. Xuddi shu sessiyada Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp qariyb 1 soat davom etgan o'z nutqida Amerika so'zini 27 marta, kuchli so'zini 17 marta ishlatish orqali o'z gegemoniyasini

¹ Siyosiy tahlil, O'quv qo'llanma, R. Z. Djumayev, D.I. Madaminova, X.I. Mustapova, B.S. Suyunova, Toshkent-2020, 7-bet

² Основы политического анализа, Учебное пособие, Беляева Н.Ю., Зудин А.Ю., Москва 2007 г, стр - 3

³ Основы политического анализа, Учебное пособие, Беляева Н.Ю., Зудин А.Ю., Москва 2007 г, стр - 7

ta'kidlab o'tdi. Urush so'zi 22 marta, qurol so'zi 11 marta, xavf so'zi 17 marta ishlatildi, aksincha ta'lim, ilm so'zlarini davlat rahbari biron marta ham ishlatmadi. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor jahondagi ziddiyatlar va davom etayotgan urushlar haqida ketgan.

Siyosiy shaxslarning xalqaro jarayondagi nutqi, xulq-atvori, tashqi ko'rinishi ularning shaxsiy imiji bo'libgina qolmay, balki davlatning ham siyosiy imijidir. Zamonaviy dunyoda har qanday davlatning samarali imidj siyosati strategik siyosiy resurs hisoblanishi bilan bir qatorda, muvaffaqiyatli tashqi va ichki siyosat yuritishning zaruriy omilidir. Endilikda siyosatchi nafaqat boshqaruv malakalariga, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, emotsional intellekt, kommunikativ qobiliyat hamda strategik fikrlashga ega bo'lishi zarur.

Davlatning siyosiy imidji bu - davlatning o'z fuqarolari va xalqaro maydondagi qiyofasi va uning namoyon bo'lishidir. Shuningdek, davlatning imidji - davlat tuzilmalarining tizimli tashkil qilinishi va ularning o'zaro aloqalaridan, shuningdek, siyosiy faoliyatning mohiyatidan kelib chiqadigan tizimli-korporativ kompleksi sifatida ham qarash mumkin.⁴

Masala shundaki, kutilgan natijaga erishish uchun yaratilgan obrazga mamlakat ichidagi va tashqarisidagi jamoatchilikni ishonitirishdir. Imidjning amaliyotda vujudga keladigan umumiy belgilarini jamlagan holda, mamlakat imidjiga nisbatan qo'llaniladigan umumiy talablarni alohida ajratish mumkin. Ulardan kelib chiqadigan bo'lsak, imidj quyidagilardan tashkil topmog'i lozim:

- sintetik, ya'ni ramzlar va belgilar yordamida ma'lum bir taassurotlarni vujudgakeltirishni rejalashtirish (geraldik rasmzlar);

- haqiqatga yaqin, ishonchli. Agarki, imidj odamlarning ishonchini qozona olmasa, u hech kimga kerak emas. Imidj aniq bir mamlakat bilan identifikatsiya qilinmog'i joiz. Imidj tirik bo'lmog'i uchun, u sog'lom mazmun talablariga javob bermog'i lozim;

- yorqin va aniq. Imidj, qachonki, odamlarning hissiyotlariga ta'sir qilsa, tezlikda qabul qilinadi, aniq maqsadlarni ko'zlasa, muayyan bir mamlakat uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsata olsagina uning samaradorligi ortadi;

- hissiyot va aql, kutilgan va reallik o'rtasida joylashgan qaysidir darajadagi noaniqlik. Imidj har doim kutilmagan ssenariylarga, kutilmagan voqeliklarga, siyosiy hayotdagi o'zgarishlarga chidam bera oladigan, shuningdek, turli qatlamlar va shaxslarning xohishlari va orzulariga moslasha oladigan bo'lmog'i lozim.⁵

Tasvir - siyosiy lider, nomzod yoki tashkilotning tashqi ko'rinishi. Bu asosan ongda mavjud bo'lgan konstruksiyadir, lekin auditoriyaning ushbu shaxslar yoki tashkilotlarning o'zini tutish uslubini dekodlash qobiliyatiga asoslanadi, shuningdek, auditoriya a'zolari ushbu shaxslar yoki tashkilotlarning ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan usuli va ular bilan muloqot qilish uslubi va uslubidan nimani oladilar.

Foydalanilgan manbalar:

1. Davlat siyosiy imidjining shakllanishi, Berdiyev Bektosh Oxnorovich, International journal of scientific researchers, Volume 10, issue 2, March 2025, <https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/73165>

⁴ Davlat siyosiy imidjining shakllanishi, Berdiyev Bektosh Oxnorovich, International journal of scientific researchers, Volume 10, issue 2, March 2025, <https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/73165>

⁵ Davlat siyosiy imidjining shakllanishi, Berdiyev Bektosh Oxnorovich, International journal of scientific researchers, Volume 10, issue 2, March 2025, <https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/73165>

2. Siyosiy tahlil, O'quv qo'llanma, R. Z. Djumayev, D.I. Madaminova, X.I. Mustapova, B.S. Suyunova, Toshkent-2020.
3. Основы политического анализа, Учебное пособие, Беляева Н.Ю., Зудин А.Ю., Москва 2007 г.